



## MADANIY – MA’NAVIY KO’RSATUVLARDA MILLIY IDENTIVLIK MASALALARI

Qayumova Dilorom Quvondiqovna

O‘zbekiston jurnalistika va ommaviy kommunikatsiya  
Universiteti “Televideniya va radio”  
Yo‘nalishi 2-kurs magistranti

<https://doi.org/10.5281/zenodo.6061321>

### MAQOLA TARIXI

Qabul qilindi: 05 – Fevral 2022  
Ma’qullandi: 10 - Fevral 2022  
Chop etildi: 13 – Fevral 2022

### KALIT SO‘ZLAR

Madaniyat, ma’naviyat,  
milliylik, identivlik,  
ko’rsatuvlar, ommaviy  
axborot vositalari, yoshlar  
tarbiyasi.

### ANNOTATSIYA

*Har bir jamiyatning, unda yashaydigan insonlarning taqdiri va kelajagi albatta davlatlarning yetakchi kuchlari hisoblanmish yoshlar tarbiyasi bilan chambarchas bog‘liqdir. Yurtimizda yoshlarning intellektual va ijodiy salohiyatini mustahkamlash, ularning mamlakatimizda amalga oshirilayotgan islohotlarga daxldorligini oshirish borasida ulkan ishlar olib borilmoqda. Zero, zamonaviy bilim va ko‘nikmalarga ega, mamlakatning munosib kelajagi uchun javobgarlikni o‘z zimmasiga ola biladigan barkamol, maqsadga intiluvchan va serg‘ayrat yoshlarni tarbiyalash bugunning eng muhim vazifalaridan biridir. Ommaviy axborot vositalarining ahamiyati va ijtimoiy siyosiy kuchi bugungi kunda ayrim mamlakatlarning quroliga aylanib qolyapti.*

Ma’lumki, Prezidentimiz ijtimoiy, ma’naviy-ma’rifiy sohalaridagi ishlarni yangi tizim asosida yo‘lga qo‘yish bo‘yicha 5 ta muhim tashabbusni ilgari surib, yoshlarga e’tiborni kuchaytirish, yosh avlodni madaniyat, san’at, jismoniy tarbiya va sportga keng jalb etish, ularda axborot texnologiyalaridan to‘g‘ri foydalanish ko‘nikmasini shakllantirish, yoshlar o‘rtasida kitobxonlikni targ‘ib qilish, xotinqizlar bandligini ta’minlash masalalari davlat siyosati darajasida e’tiborga olindi.

Yangi O‘zbekiston tarixiy bosqichiga qadam qo‘yilgan ilk kunlardan buyon milliy yetakchimiz tomonidan alohida va uzluksiz

e’tibor berilayotgan masala ma’naviyat va ma’rifat bo‘lgani holda, boy va hech kimda yo‘q tarixiy-madaniy merosimiz qadr-qimmatini o‘rniga qo‘yish, uni chuqur o‘rganish, undan ta’lim va tarbiyadek o‘ta zarur va nozik sohada unumli foydalanishga alohida urg‘u berib kelinayotgani ham haqiqatdir. Bugungi kunda milliy va ma’naviy ahamiyatga molik bo‘lgan ko‘rsatuvlar sonini oshirish dolzarb masalalardan bo‘lib turibdi. Xususan, ulug‘ ajdodlarimizning hayoti va ijodiga bag‘ishlangan ko‘rsatuvlar, tarbiyaviy ahamiyatga molik bo‘lgan ko‘rsatuvlar va ta’lim berishga yo‘naltirilgan turli xildagi o‘zida milliy identivlikni yaqqol namoyon



qiluvchi ko'rsatuvlarning safi kengashi albatta, yoshlar ongida vatanga muhabbat va hurmat tuyg'ularining shakllanishiga yordam beradi.

Milliy ko'rsatuvlarimiz quyidagilarga xizmat qilishi kerak:

- ezgulik va insonparvarlik tamoyiliga asoslangan "Milliy tiklanishdan — milliy yuksalish sari" g'oyasini keng targ'ib etish orqali jamiyatda sog'lom dunyoqarash va bunyodkorlikni umummilliy harakatga aylantirish;

- oila, ta'lim tashkilotlari va mahallalarda ma'naviy tarbiyaning uzviylikini ta'minlash;

- targ'ibot-tashviqot va tarbiya yo'nalishidagi ishlarni ilmiy asosda tashkil etish, soha bo'yicha ilmiy va uslubiy tadqiqotlar samaradorligini oshirish, ijtimoiy-ma'naviy muhit barqarorligini mustahkamlashga qaratilgan doimiy monitoring tizimini joriy qilish;

- el-yurt taqdiriga loqaydlik, mahalliychilik, urug'-aymoqchilik, korrupsiya, oilaviy qadriyatlarga bepisandlik va yoshlar tarbiyasiga mas'uliyatsizlik kabi illatlarga barham berishga qaratilgan kompleks chora-tadbirlarni amalga oshirish;

- aholining Internet jahon axborot tarmog'idan foydalanish madaniyatini oshirish, g'oyaviy va axborot xurujlariga qarshi mafkuraviy immunitetini kuchaytirish;

- madaniyat, adabiyot, kino, teatr, musiqa va san'atning barcha turlari, noshirlik-matbaa mahsulotlari, ommaviy axborot vositalarida ma'naviy-axloqiy mezonlar, milliy va umuminsoniy qadriyatlarning ustuvorligiga erishish zarur.

Aslida, jamiyat hayotining tanasi iqtisodiyot bo'lsa, uning joni, ruhi ma'naviyatdir. Chunki ma'naviy asoslarsiz, ma'naviy negizlarsiz, ma'naviy qadriyatlarsiz ma'naviy-milliy ruhsiz hech bir davlat o'zining yuksak maqsadlariga erisha olmaydi. Agar biz bobolarimiz yaratgan ikkita Renessansning asosiga nazar tashlaydigan bo'lsak, ikkalasida ham o'sha iqtisodiy rivojlanish bilan ruhiy rivojlanish uyg'unligini ko'ramiz. Shu boisdan ham o'tgan yilning sentyabr oyida yangi tashkil etilgan Renessans telekanali ham yil boshida to'liq ish faoliyatiga o'tdi. Bugungi kunda ushbu telekanal orqali efirga berilayotgan aksariyat ko'rsatuvlar milliy identivlikning namunasi bo'lyapti. Shuningdek, Mahalla, O'zbekiston, Madaniyat va ma'rifat, Yoshlar va bir qator xususiy telekanallarda ham biz bu kabi madaniy va ta'limiy ko'rsatuvlarni uchratamiz. Ammo tanganing ikkinchi tomoni ham bor?

Ayrim ko'rsatuvlar na bizni madaniyatimizga va milliyligimizga to'g'ri keladi. Bu esa yoshlarga ularning ertasiga salbiy ta'sir etib qolishi ham hech gap emas. Ba'zan bu kabi ko'rsatuvlar va xorijiy filmalarning ma'nosi va mazmuni juda yengil va ularni tamosho qilish orqali kuzatuvchilar afsuski hech narsa olishmaydi. Aksincha, o'zlarining ijtimoiy hayotdagi muammolari yetmagandek yana ko'rsatuv orqali ikki karra tushkunlikka tushish va asabiylashish holatlari, hayotda ham shu kabi harakatlarni qaytarish holatlari kuzatiladi.

Har qanday xalqning tarixi, o'ziga xos tabiati, qadriyatlari, avvalo, o'sha xalqning ona tilida aks etadi. Bejiz tilni millatning ma'naviy immuniteti deb baholamaganlar. Boisi, o'z tilini asrab-avaylagan, uni



zamonlar osha rivojlantira olgan millatgina o'zligini, milliy qiyofasini saqlab qoladi.

Yurtimiz ozodlikka erishgach, o'z ona tilimizda emin-erkin so'zlash huquqiga ega bo'ldik, tilimizning kamsitilishiga chek qo'yildi. Nufuzli xalqaro minbarlarda o'zbekcha so'zlarimiz yangray boshladi, tilimizni o'rganishga qiziquvchi xorijliklar ko'paydi. O'zbek tilida chop etilayotgan matbuot nashrlari, kitoblarning turi va adadi keskin darajada oshdi. Zamonaviy axborot texnologiyasi bo'yicha o'zbekcha dasturlar paydo bo'ldi va hokazo.

Shubhasiz, bu jarayonda bundan o'ttiz yil oldin qabul qilingan "Davlat tili haqida"gi qonunning xizmati katta bo'ldi. Ammo shu bilan birga, tan olish kerakki, bu muhim hujjatda aks etgan bandlar ijrosini o'tgan yillar davomida hamisha ham ta'minlay oldik, deya olmaymiz. Ya'ni milliy ko'rsatuvlarni ko'paytirish va umuman olganda, televideniye orqali efirga berilayotgan har qanday jurnalistik materialda o'zbek tilining adabiy til me'yorlariga amal qilishini va ona tilimizga hurmat bilan qaralishi shart.

### **FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:**

1. ЎРҚ-668-сон 20.01.2021. Маданий фаолият ва маданият ташкилотлари тўғрисида. <https://lex.uz/docs/5230682>
2. 142-сон 25.03.1992. Ўзбекистон Республикаси Халқаро маданий-маърифий алоқалар миллий уюшмасини ташкил этиш тўғрисида. <https://lex.uz/ru/docs/404810>
3. Ma'naviyatli yoshlar vatan tayanchi. <https://yuz.uz/uz/news/manaviyatli-yoshlar-vatan-tayanchi>
4. Ўзбекистон Миллий ахборот агентлиги - расмий хабарлар, тезкор янгиликлар, таҳлилий-танқидий материаллар, қонун ҳужжатлари, фото ва видеорепортажлар. <https://uza.uz/uz>